

Sport - bu avvalo sog'lom avlod, sog'lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.
Islom KARIMOV

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:7 (67068)
2016-yil
15-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

Kuni kecha Oqsaroyda Prezidentimiz raisligida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari Jamg'arma tashkil etilganidan buyon xususan, 2015-yilda amalga oshirilgan ishlar va ularning ahamiyati to'g'risida atroflicha so'z yuritdi.

BARKAMOL AVLOD



7-bet

YURT TAYANCHI

Mamlakatimiz yoshlari orasida sportni ommaviylashtirish, chinakam iste'dod egalari kashf etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning qit'a va jahon birinchi-liklarida, turli yirik xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etib, ona Vatanimiz nomini butun dunyoga tanitayotganliklari barchamizning qalbimizga faxr-u iftixor tuyg'ularini jo etadi.

O'tgan yillar davomida Jamg'arma tomonidan yurtimizda barpo etilgan betakror sport inshootlari, musiqa va san'at maktablari, yoshlar markazlari o'g'il-qizlarning har jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Birgina 2005-yilda mamlakatimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning 30 foizi, jumladan, qishloq joylarda 29 foizi sport bilan shug'ullangan bo'lsa, 2015-yilda bu raqamlar mos ravishda 57,2 foiz va 56 foizni tashkil etgani quvonarli hol, albatta. Bu raqamlar qisqa davr oralig'ida bolalar sportida katta muvaffaqiyatlarga erishganimizning isbotidir.

2005-yilda yoshlarimiz 43 turdagi mashg'ulotlarga qatnagan bo'lsa, bugungi kunda ular 59 sport turi bilan muntazam shug'ullanishmoqda. Ayniqsa, badiiy gimnastika, sinxron suzish, vaterpol, dzyudo, tennis, karate, eshak eshish kabi sport turlarining ommaviylashib borayotgani g'oyat quvonarlidir.

O'ylaymizki, bu sohada olib borilayotgan xayrli ishlarimiz bundan keyin ham bardavom bo'lib, yoshlarimiz orasidan ona Vatanimiz nomini xalqaro maydonlarda munosib himoya qiladigan chempionlar yetishib chiqishi, shubhasiz.

S. TURSINOV



4-bet

She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy hazratlarining 575 yillik, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning 533 yillik tavallud ayyomi ayni kunlarda yurtimizning barcha bilim go'shalarida keng nishonlanmoqda.

Buyuk siymolarning asarlarini o'rganish, yurtga muhabbat hamda ezgulikka oid qarashlarini keng targ'ib etish maqsadida respublikamiz umumta'lim maktablarida fevral oyining «Navoiyxonlik» va «Boburxonlik» oyligi deb e'lon qilinganligi ayni muddao bo'ldi.

Ajdodlarga munosib AVLOD



Farahbaxsh kunlarning birida Andijon shahrida ana shunday tadbir uyushtirildi. Adabiyotshunos olimlar, keng jamoatchilik vakillari, pedagoglar hamda o'quvchilarning yoshlar tomonidan

Navoiy haykali poyi gullarga burkandi. Shoir g'azallari o'qildi, uning bolaligi aks etgan sahna ko'rinishi kechaga fayz bag'ishladi. Tadbir shahardagi 30-umumta'lim maktabida «Navoiy – g'azal mulkining sultoni» deb nomlangan g'azalxonlik kechasiga ulanib ketdi.

Ta'lim muassasalarida «Navoiyni yod etib», «Navoiy ijodida do'stlik tarannumi», «Navoiy va Bobur ijodida Vatan madhi» kabi mavzularda tashkillashtirilayotgan kechalarda o'quvchilar mutaxassislar tomonidan buyuk siymolar ijodining o'ziga xos qirralari bilan yaqindan tanishmoqdalar. Shuningdek, «Alisher Navoiy asarlari bilimdoni», «Zahiriddin Muhammad Boburning ma'naviy merosi» mavzularida insholar, «Ajdodlarga munosib avlod bo'laylik» mavzusida tasviriy san'at asarlari tanlovi ishtirokchilari o'z chiqishlarida ajdodlarimizning munosib izdoshlari ekanligini isbotlashdi.

NURBEK

DOVONDA YANGRAGAN NAVOLAR

Buyuk ajdodlarimizga bag'ishlangan tadbir Toshkent viloyati, Angren shahridagi Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatida bo'lib o'tdi.

Bilim dargohiga filologiya fanlari doktori Isomiddin Yormatov rahbarlik qilmoqda. Bu yerdagi o'quvchilarning hozirjavobligi, ilmga chanqoqligi mazkur tadbirga alohida fayz bag'ishladi. Navoiy va Boburning bolalik chog'lari bilan bog'liq bo'lgan qiziqarli voqealar, ularning bizlarga qoldirgan boy tarixiy merosi haqida O'zFA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi Muhammadjon Abdullayev, navoiyshunos olim Bobomurod Erali, bolalar shoiri Ne'mat Dushayev o'zlarining qiziqarli fikr-mulohazalarini bildirishdi. Ingliz tili fanini mukammal o'rganayotgan 6-sinf o'quvchilari

Elyor Umarov Boburning, Habib Saydullayev Alisher Navoiyning hayoti va ijodini ingliz tiliga o'g'irgan tarjimalari orqali bayon etishdi. 6-«V» sinf o'quvchisi Diyorbek Qo'shoqov «Vatan» nomli she'rini o'qib berdi:

**Vatan, senga turfa gullar tutaman,
Qalbdan bor she'rlarim tuhfa etaman.
Tuproq'ing men uchun erur bebaho,
Uning zarrasidan rizqim teraman.**

**Zilol suving ichib, bug'doy noning yeb,
Bo'yim cho'ziladi, kuchga to'laman.
Ulg'aysam, sarhadning qo'riqlayin deb,
Koringga yaragan askar bo'laman.**



Ha, dovon yaqinida joylashgan bu muhtasham binoda tahsil o'layotgan orzulari osmon o'quvchilarning chaqna turgan ko'zlaridan ilmga chanqoqlik hissini sezdik. Bir kun kelib, yun koriga yaraydigan yet barkamol avlodiga, Hazrat Navoiyning «Yoshlikda yig' ilm ganjini» ibratli pandi yor bo'lishini tiladik.

AXTAMQULI

Chilonzor tumani maktablarida

SO'Z MULKINING SULTONI

Yoqutxon opa Fayziyeva rahbarlik qilib kelayotgan 270-umumta'lim maktabida Sayyora Xoliqova, Inobat Ergasheva, Dilorom Usmonova hamda Nasiba Hayitboyeva singari malakali ustozlar 1158 nafar o'quvchiga ta'lim berib kelmoqdalar.

Elzara Yuldasheva rahbarlik qilayotgan 162-umumta'lim maktabida «Alisher Navoiy buyuk siymo» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu adabiy kecha maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Aziza Yusupova tomonidan 5-«G» hamda 9-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkillashtirildi. Boshlovchilar Laziz Xolov va Dilnoza Sa'dullayeva buyuk shoirming bizga qoldirgan shoh asarlari, teran fikrlari nafaqat elimiz, balki butun dunyo ahliga insonparvarlik, ezgulik g'oyalari baxsh etib kelayotganini ta'kidlashdi.

Eng quvonarlisi, anjumanga Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyidan G'ofurjon Tojiboyev rahbarligida o'quvchilar mehmon bo'lib kelishdi. An'anaviy ijrochilik bo'limining 8-sinf o'quvchilaridan A. Ahmedov, N. Vahobov, K. Xudoyorov, S. Toshmirov, S. Bunyodov tanbur, rubob, afg'on rubobi, childirma kabi o'zbek xalq cholg'u asboblari mohirona chalib, Navoiy g'azallaridan maqomlar ijro etishdi.

Shuningdek, tadbirida yozuvchi Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» asaridan parcha qo'yildi. Navoiy obrazini 9-sinf o'quvchisi Abdumatal Abdug'afvorov ijro etdi. Shahzoda Yusupova ijrosidagi «Tanovor» raqsi kechaga alohida fayz bag'ishladi.

Dilorom HOTAMOVA



Mazkur ta'lim maskanida «Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher» mavzusida adabiy kecha bo'lib o'tdi.

– O'zbek xalqining ulug' mutafakkir shoiri Alisher Navoiydan Sharq mumtoz adabiyotining barcha janrlariga oid juda katta hajmdagi boy meros yetib kelgan, – deya so'z boshladi biz bilan suhbatda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Umida opa Abdunabiyeva.

O'z davrida yuksak g'oyalarni badiiy barkamollik bilan



M. AHMEDOV olgan suratlari

ifodalab bergan shoir asarlari asrlardan asrlarga o'tib, ardoqlanib kelinmoqda.

Tadbirida maktabning a'lochi o'quvchilaridan Mahliyo Sobirova, Saida Abdug'ofurova, Abdurahmon Sharipov, Mohira Erkinova, Diyora Qobilova, Muhayyo

Tursunova va Nilufar Latipova kabi yoshlar o'zlarining ajoyib chiqishlari, dilbar g'azallari, chiroyli milliy raqslari bilan yig'ilganlar qalbidan Hazrat Navoiy ijodiga ehtirom, hurmat va qiziqish uyg'ota oldilar.

Jamoliddin ABDULLAYEV



Men 1-sinfda o'qiyman. Sinfimizdagi 29 nafar o'quvchi juda ahihmiz. Ustozimiz Nilufar opa Ibragimova bizlarga yozuv, o'qish, matematika, odobnoma, ingliz tili fanlaridan saboq beryaptilar.

Bo'sh vaqtlarimizda bog'ga borib, daraxtlarni parvarishlaymiz. Bobom va buvijonim bizlarga daraxtlarni parvarishlash haqida maslahatlar beradilar. Yozda bog'imizdagi mevalar pishadi. Biz ularni mazza qilib yeymiz.

Akam Elnur va Madamin darslardan so'ng boks bilan shug'ullanishadi. Men esa onamning eng yaqin ko'makchisi bo'lib, uy yumushlariga qarashaman. Alisher Navoiy bobomizning tug'ilgan kunlariga bag'ishlab she'r yod oldim. Tinch va obod yurtning sog'lom oilasida, yaqinlarim bilan tinch yashayotganimdan baxtiyorman.

Nilufar MAHMUDOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 1-«V» sinf o'quvchisi

Alisher Navoiy! O'zbek adabiyotida noyob durdona asarlari bilan boy adabiy meros qoldirgan buyuk so'z san'atkori.

YETUKLIK NAMUNASI

U lirikaning 16 janrida qalam tebratgan. Bolaligidan o'tkir zehni bo'lgani bois o'qish va yozishni tez o'rgandi. 7-8 yoshlaridan she'rlar yoza boshladi. 4-5 yoshida Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini boshidan oxirigacha yod oldi.

Mavlono Lutfiy Alisherning bir bayt g'azaliga 12 ming baytdan iborat turkiy va forsiy devonlarini alishardim, deya uning iste'dodini yuqori baholagan.

Bolaligidan buyuk shoirlar nazariga tushgan bobokalonimiz asarlari ma'naviy poklik, fikriy yetuklik namunasi bo'lib, insonlar qalbidan chuqur joy olgan. Muborak nomlari esa asrlar osha yashayveradi.

Farangiz BAHRIDDINOVA,
Buxoro shahridagi 4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

BAKTIYOR QIZMAN

Yurtboshimiz tomonidan 1-sinf o'quvchilari uchun topshirilgan 12 nomdagi o'quv qurollari va darsliklari barchamiz uchun qimmatli sovg'a sanaladi. Oilada 7 nafar farzandimiz. Bobom va buvim bizga shirinso'zlikni, ochlikni qadriga yetishimiz kerakligini dasturxon atrofida duoga qo'l ochib eslatadilar.

Rapqon qishlog'imizda bog'imiz bor.



SEVIMLI NASHRIMIZ bilan birgamiz!

Assalomu alaykum, hurmatli gazeta tahriiyati xodimlari!

Biz jannatmakon yurtimizning eng chekka Zomin tumanining tug'li hududidagi Turkiston tog' tizmasi bag'rida joylashgan O'rikli qishlog'idan sizga maktub yo'llamoqdamiz.

Maktabimizda ta'lim ikki tilda – o'zbek va qirg'iz tillarida olib boriladi. Ikki millatning vakillari azaldan ahil, inoq yashab, doimo yelkadosh bo'lib kelmoqdalar.

Biz qirg'iz tilida ta'lim olamiz, o'zbek tilini ham mukammal bilamiz. Jannatmakon O'zbekistonda tug'ilib voyaga yetayotganimizdan faxrlanamiz. Kelajakda yaxshi va a'lo baholar bilan maktabni tamomlab, el koriga yaraydigan farzandlar bo'lishga harakat qilamiz.

Bunda sevimli nashrimiz alohida o'rin tutishi, shubhasiz. Biz «Tong yulduzi»ga har yili obuna bo'lamiz va har bir sonini o'qib boramiz. Tengdoshlarimiz ijodi bilan yaqindan tanishish barobarida o'zimiz ham turli boshqotirmalar tuzamiz, ertak va hikoyalar yozamiz, chet tillaridan tarjima qilamiz.

Sizlarga o'zimiz chizgan rasmlardan namunalar yubormoqdamiz.

Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 36-umumta'lim maktabi o'quvchilari

ORZULARI ULKAN NAZOKAT

Orzular insonlarni ezgulikka yetaklaydi va komillik sari undaydi. Tengdoshimiz Nazokat Astonovanning ham orzu-niyatlari limmo-lim.

U poytaxtimizdagi 200-umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiydi. Hozirda Nazokat qo'shiqchilik san'atining «An'anaviy ijrochilik» yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqda.



Nazokat shu kungacha turli ko'rik-tanlovlar hamda festivallarda g'olib bo'lgan. Jumladan, 2015-yil «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining laureati. Tengdoshimiz kelgusida o'zbek qo'shiqchilik san'ati dovrug'ini butun olamga yoyishni istaydi.

Bu yo'lda biz unga muvaffaqiyatlar tilaymiz va orzularing ijobat bo'lsin, deymiz.

Barno MAMAJONOVA,
Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 7-«B» sinf o'quvchisi



Sevara SUYUNOVA, 6-«A» sinfi



Umida IBRAGIMOVA, 6-«A» sinfi



Sevara SAFAROVA, 5-«A» sinfi



Lochinbek SAFAROV, 6-«A» sinfi

«TONG YULDUZI» A'LOCHILARI

Aziz bolajonlar, «Tong yulduzi» a'lochilari ruknini tashkil qilinganiga unchalik ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, sizlardan juda ko'p maktublar oldik. Bu esa gazetamizni kuzatib borayotganingizdan, undagi maqola-yu yangi tashkil etilayotgan ruknlarga qiziqish bildirayotganingizdan dalolat beradi. Quyida esa sizlarni gazetamizning a'lochi o'quvchilari bilan tanishtirishda davom etamiz va Siz ham safimizga qo'shiling, deymiz:

NAVOIYDAN YO'LLANGAN SALOM

Navoiylik muxlisimiz Sitora Napasova Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabida o'qiydi. U yozgan she'rlari, maqolalari bilan sizga juda yaxshi tanish. Sitora o'z she'rlarida Vatani, ona madhini jo'shib kuylaydi, maktabda o'tkazilgan tadbirlar, turli uchrashuvlar uning nazaridan chetda qolmaydi. Uning bundan keyin ham biz bilan ijodiy hamkorlik qilishiga ishonamiz.



«QAYNAR BULOQCHA»

Tengdoshingiz Madinabonu Boyqobilovaga u qatnashadigan to'garak rahbari, bolalarning sevimli shoiri Turdi Haydar ana shunday ta'rif bergan. Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 5-umumta'lim maktabining 5-«B» sinfidagi tahsil olayotgan tabiatan tirishqoq bo'lgan bu qizaloq, darslardan bo'sh vaqtlarida viloyatdagi «Kamolot» yoshlar markazining she'rxonlik to'garagiga qatnarkan. Bunga Madina singari ijodkor o'quvchilardan 200 nafari a'zo bo'lgan. Ijod qilish bilan birga san'atga ham mehri balandligi tufayli san'at kollejining qo'shiqchilik to'garagiga qatnab, ustozlari Yodgor Bozorovdan saboq olayotgan, Bobur aka Usmonovdan esa rubob chalishni qunt bilan o'rganayotgan ekan. Viloyatdagi M.Toshmuhammedov nomidagi drama teatrida kichik rollarni ijro etishni uddasidan chiqayotgan Madinabonuga ustozining o'xshatishi bejiz emasligiga biz ham ishonch hosil qildik.

Maktublarni OZODA saraladi

SHE'RIYATGA TOJ QO'YGAN SIYMOLAR

Oradan necha asrlar o'tgan bo'lsa-da, Hazrat Navoiyning bitiklari o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmay kelmoqda. Buxoro viloyatidagi «Barkamol avlod» bolalar markazida ulug' bobokalonimizning tavallud ayyomiga bag'ishlab «She'riyatga toj qo'yg'an siymolar» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda markazning barcha to'garak a'zolari faol va ijodiga bag'ishlangan ochiq mashg'ulotlarni qatnashdilar. Jumladan, «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolarining chizgan rasmlaridan ko'rgazma tashkil etilgan bo'lsa, «Jurnalstika va notiq» to'garagi a'zolarining yod olgan ruboiy, g'azal va baytlari davraga xushkayfiyat olib kirdi. Ayniqsa, to'garak a'zolari tomonidan sahnalashtirilgan «No'shiravoni odil» deb nomlangan kichik sahna ko'rinishi Navoiy yashagan zamon muhitini davraga olib kirgandek bo'ldi. Tadbirga yaqin ingliz tili to'garagi a'zolari ulug' mutafakkirlar hayoti



boshlab yuborishgan bo'lsa, milliy raqs to'garagi a'zolari kuy va qo'shiqlarga mos raqslar sahna-lashtirishdi, «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolari turli bezakli tosh va munchoqlardan buyuk siymolarimizning portretlariga zeb berdilar. Bir so'z bilan aytganda, buyuk siymolarga bag'ishlangan tadbir uyushqoqlik va hamijhatlikda o'tdi.

Barchinoy KARIMOVA,
Buxoro viloyat «Barkamol avlod» bolalar markazi madaniy-ommaviy tadbirlar tashkilotchisi

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabida «Yosh adabiyotshunos» to'garagi faoliyat yuritadi. Yosh adabiyotshunoslar hamisha izlanishda. Shu bois, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelishmoqda.

QUVONCHINGIZGA SHERIKMIZ



Yaqinda tajribali pedagog Mohin Omarova shogirdlaridan biri 9-«A» sinf o'quvchisi Aziza Habibulloyeva «G'azalxon yoshligim» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, tumandagi tengdoshlari orasida sovrindorlar qatoridan joy oldi. Buyuk mutafakkir

shoir Hazrat Alisher Navoiyning «Bo'ldim sango» radifli g'azalini yoddan ifodali o'qiganida benazir so'z san'atkorining go'zal satrlari davra ishtirokchilarini maftun etdi.

Azizaning sindfoshi Muxlisa Hamroyeva ham «Ajdodlari buyuk yurt farzandanim» insholar tanlovida tuman bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. U o'zining «Bobur dilbar shaxs» mavzusida yozgan inshosida Boburning shoh, shoir, olim, sarkarda sifatidagi go'zal qirralarini ochishda ajoyib izlanishlar olib borgani mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etildi.

Biz ham yosh do'stlarimizga yanada yangi yutuqlarni tilagan holda navbatdagi xushxabarlarni kutib qolamiz.

Yusuf OG'AJA

MUALLIMLIK ULUG' BAXT



Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Dilnoza Narzullayeva har bir mashg'ulotni zamonaviy uslubda tashkillashtirar ekan, o'quvchining o'zlashtirish darajasiga alohida e'tibor qaratadi.

Har gal o'zi tayyorlagan qiziqarli ko'rgazmalar orqali mashg'ulotni mustahkamlaydi. Dars so'ngida ko'zlangan maqsadga erishdimi-yo'qmi, qayta-qayta bolajonlarni birma-bir sinovdan o'tkazadi.

Dilnoza opa maktabda tashkil etilgan «Ilhom» ijodkorlar to'garagi rahbari. Ijodkor muallima to'garak a'zolarini kitob, gazeta-jurnallar bilan yaqin do'st bo'lishga chaqiradi, ularga she'r mashq qilishning qonun-qoidalarini puxta o'rgatib kelmoqda. O'quvchilarning mashqlari tuman, viloyat, respublika nashrlarida muntazam e'lon qilinmoqda.

O'quvchilaridan D. Mufazzalova, O. Dehqonov, M. Ibrohimovalarning she'rlari «Tong yulduzi» gazetasida chop etilganidan ustoz xursand.

– Esimda, yoshligimda o'zim qoralagan she'riy mashqlarni maktub orqali «Tong yulduzi» gazetasiga jo'natardim, – maktab damlarini xotirlaydi ustoz. – She'rlarim gazetada bosilmagan bo'lsa-da, bugun orzularim ro'yobini o'quvchilarimda ko'ryapman. Buning uchun esa «Tong yulduzi»ga rahmat aytaman.

ZEBO

ONALARNING KO'NGLI XOTIRJAM

Ko'pincha «O'g'lim yolg'iz qolyapti, ko'cha-ko'yga chiqqanda xabar olib turing», deb tayinlaydigan qo'shnim keyingi paytlarda negadir bu gapni aytmay qo'ydi. Bir kuni ishdan qaytayotib, uni uchratib qoldim va bolasi haqida so'ragim keldi. Qo'shnim bu safar zavqqa to'lganicha o'g'li haqida hikoya qila ketdi.

– O'g'lim Sarvarbek yaqindan buyon doira to'garagiga boryapti. O'qishlarida ham yaxshi tomonga o'zgarishlar sezyapman. Uyali telefonni titkilash odatini ham tashlab yubordi.

bolalar markaziga qatnayotganligi haqida bilib oldim va u yerdagi to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishgim keldi.

Markazga kelganimda rus tili va ingliz tili bo'yicha mashg'ulotlar tugab, doirachilar guruhi a'zolari bir-biridan sho'x kuylarni chalishni boshlab yuborishgan ekan.

– O'g'lim Abdufotih tumanimizdagi 165-umumta'lim maktabida o'qiydi, – deydi yosh doirachilardan birining onasi Gulnora opa Qambarova. – Ustozi Inomjon O'roqovdan doira, tabla chalish sirlarini o'rganyapti.

– To'garagimda 15 nafar o'quvchi

bor, – deydi suhbatimizga qo'shilgan Inomjon aka. – Ular 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan iqtidorli bolalar. Husan Tohirov, Abdufotih Usmonov, Yorqinjon Yodgorov, Muzaffar G'ofurov, Avazjon Saidov, Mansur Ergashev, Doston To'xtamurodov, Aziz Sodiqov, Javohir Alixo'jayev kabi o'quvchilarim umidli shogirdlarimdir.

– Markazimizda badiiy ijod, o'lka-shunoslik va ekologiya, texnik ijodiyot kabi yo'nalishtalarda mashg'ulotlar olib boriladi, – deydi biz bilan suhbatda markaz rahbari Zumrad opa Hakimova. – Bugungi kunda 650 nafar o'quvchi mashg'ulotlarga qatnayapti. Shuningdek, tumanimizdagi ko'plab maktablarga mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'qituvchilarimiz jalb etilgan. Raqs, ingliz, rus tili, to'qish, munchoqli bezak, tasviriy va karving san'ati kabi jami 25 ta to'garakda ikki smenada faoliyat olib borilmoqda.

– Men raqs to'garagi a'zosi Farangiz Shag'darovaning onasi bo'laman, –

deya suhbatga qo'shildi mashg'ulotga qizini olib kelgan o'rta yoshlardagi ayol. – Katta o'g'lim Mehroj suzish to'garagiga qatnaydi. Qizimning raqs bo'yicha ustozlari Muborak Jabborovaga



shogirdlari kabi biz ham havas qilamiz. Markazda faoliyat yuritayotgan, o'z kasbining ustasi bo'lgan ustozlar fidoyiligidan ko'nglimiz tog'day ko'tarildi. Ular qo'lida turli yo'nalishtar bo'yicha shug'ullanayotgan hajji qalblar, vaqti kelib, o'zi tanlagan sohasining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishiga ishonamiz.

Nodira NAZAROVA,
J. ABDULLAYEV
olgan suratlar



Qo'shnimdan o'g'li poytaxtimizning Olmazor tumanidagi «Barkamol avlod»

CHAQNOQ YULDUZ SHU'LASI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 90-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan tadbirida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Alisher Otaboyev, «Olmazor» MFY raisi A. Rahimbekov, «Olmazor» mahallasi Xotin-qizlar raisi D. Mayusupova va mahalla faollari ishtirok etishdi.



Tadbirni maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Bobur Mo'minov tashkillashtirdi. Maktab rahbari Marhamat Ahmedova Istiqlol tufayli mamlakatimizda ulug' mutafakkir va uning asarlariga bo'lgan ehtirom tubdan yuksalganini alohida ta'kidladi.

Tadbirida 534-bog'cha tarbiyalanuvchilari ham qatnashib, shoir ijodidan g'azal va she'rlar o'qishdi. «Non isi» nomli sahna ko'rinishini namoyish etishdi. O'quvchilar tomonidan buyuk siymo ijodi haqida rus va ingliz tillarida so'zlab berilishi, shuningdek, ular tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari tadbirga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Maktabning 5-«A» va 5-«B» sinf o'quvchilari




ustozlari Nargiza Ibrohimova va Nargiza Hakimova boshchiligidagi kuni kecha Temuriylar tarixi davlat muzeyida bo'lib, olam-olam taassurotlar olganliklari haqida maroq bilan so'zlab berishdi.

Shavkat KAZAKBAYEV

Lesson 74

Motherland sense (Vatan tuyg'usi)

Alone rove gardens rest,
I feel superior sense.
This sense doesn't disappear from my heart,
It was the breath of this motherland sense.



This was my dear village, my motherland,
We went sandy streets bare-footed.
I feel my shaking thumb in my heart,
This motherland sense tune strike eternal.

Madina HAMROYEVA,
the pupil of the 8th form in school number 43
in Bukhara region, Gijduvon district

Excuse me or Sorry?


Find the right definition to these words:

- Excuse me** – to someone when they sneeze. They can reply by saying thank you.
- Sorry** – to express good wishes when you have a drink with other people.
- Cheers** – to wish someone well before a difficult situation, e.g. an exam, a driving test, etc.
- Good luck** – to get someone's attention or when you want to get past, e.g. in a crowded place. To tell others you are going to leave the room.
- Bless you** – to say sorry, e.g. you stand on someone's foot. You could also say I beg your pardon in this situation. And when you want someone to repeat what they said.

How do you spend your free time? (Bo'sh vaqtigizni qanday o'tkazasiz?)

Copy and complete the sentences:
Get up sew write play draw speak do

1. My granny likes sewing.
2. I like ... letters.
3. I don't like ... early.
4. Does he like ... English?
5. He likes ... puzzles.
6. Does your brother like tennis?
7. He doesn't like ... his homework.
8. Anvar doesn't like ... maths.
9. I don't like ...
10. My friend likes ... football.



Dono AHMEDOVA

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English! What is this? (Bu nima?)

What are these things? Choose your answer from the list and write a sentence.

- animal, bird, flower, fruit, musical instrument, planet, river, tool, game, vegetable



1. A duck? It's a bird
2. The Nile? It ...
3. A rabbit? It ...
4. Tennis? It ...
5. A rose? It ...
6. A hammer? It ...
7. A carrot? It ...
8. Mars? It ...
9. A trumpet? It ...
10. A pear? It ...



Ibrohim ABDUVALIYEV,
the pupil of republic television college

Match (Solishtiring)

1. How many lessons have you got on Monday? A) Yes, I do.
2. Is history your favorite subject? B) Six.
3. Is your first lesson English today? C) No, it is boring.
4. Do you go to school every day? D) Yes, he likes.
5. Does your friend Sardor like PI? E) No, it is math.

Let's make a new word (Keling, yangi so'z yasaymiz)

Adding these words to each other make the new words.

Example: Home+work=Homework
Class+room=Classroom

Business, motor, cross, key, black, basket, some, dish, school, bed

+

Way, board, man, ball, board, thing, ball, children, washer, room



Prepared by Dinora SHAKIROVA

Zikrilla NE'MAT

OYIM - OY, DADAM - QUYOSH



Oyim - Oy, dadam - Quyosh, Biz mitti yulduzchalar. Oila osmonida, Quvnoq o'g'il-qizchalar.

Oy-u Quyosh mehridan, Nur olib ko'z ochamiz. So'ng o'zimiz dillarga, Mehr nurin sochamiz.



MEHRIBON JONZOT

Dunyoda eng mehribon Jonzot nima, ey Tilak?! Menimcha, bunday hayvon, Kenguru bo'lsa kerak.

Chunki u o'z bolasin, Opichlamay yelkada. Avaylab yurar doim, Ko'ksidagi «xalta»da.



BILAG'ON TO'TI

Nega hadeb bir so'zni Takrorlaysan, To'tijon? - Deya so'radi bir kun To'tidan Jibljajbon.

To'ti der: - Bir xil sayrash Dilimning nolasidir. Bilsang, axir takrorlash Bilimning onasidir.



QISHLOG'IM

Oh mening jannatbaxsh, aziz qishlog'im, Sening quchog'ingda yuribman bedor. O'ylab o'yларimga hech yetolmadim, Ayt-chi, bu mehningda qanday sehr bor?

Nogahon sen tomon talpinaman men, Tortasan o'zingga ohanraboday. Moviy osmon kabi bag'ring buncha keng, Kuylayin men seni o'tlig' navoday.

Kamronbek RAHMATULLAYEV,
Toshkent moliya instituti qoshidagi
Moliya akademik litseyi o'quvchisi

GULISTONIM

Dildagi shukr-u orim, Sen mening onajonim. Bo'lay sen-chun jon fido, Guliston - gul, bo'stonim!

Shahrim ajib jilvakor, Unda ajab sirlar bor. Gulga to'lgan makonim, Sen mening Gulistonim!

Qalbda jo'shqin hislar bor, She'r yozay takror-takror. O'tamday yuksak tog'im, Jonajon Gulistonim!

Ozoda NAIMJONOVA,
Sirdaryo tumanidagi
21-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



MENGA HAMROH DOIMO (Singlim Mahliyoga)

Boqishlari ajoyib, Kulishi-chi, g'aroyib. Ko'zlari qora munchoq, Menga doimiy o'rtiq. G'amginlik yarashmaydi, Kulib yurgin, Mahliyo. O'rtimdan sira qolma, Yonimda bo'ldoimo.

Maftuna CHO'TIMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov
tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining 7-«A» sinf
o'quvchisi



BOBUR BOBOM

Shohiqiron avlodidir - Bobur bobom, Vatanimning g'ururidir - Bobur bobom. Dunyo ahli aro tengsiz dovrug' solib, Yo'lbars nomin olgan mening botir bobom.

O'zga yurtda shoh bo'lsa-da, sog'inch hissi, Yuragini Andijonga boshlab borgan. Vatan ishqin olislarda his etganda, Baytlarida o'z yurtiga dil yuborgan.

«Boburnoma» - shoh asarin meros qilib, Ko'ngillarga bir cho'g' yoqib ketdi Bobur. She'riyatning bo'stoniga gullar to'shab, Quyosh kabi nur taratib o'tdi Bobur.



Ruxshona SULTONOVA,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi
35-umumta'lim maktabining
5-«D» sinf o'quvchisi



YOQUBBEK CHIZGAN RASMLAR

JONAJON MAYMANOG'IM

Maymanog'im, desam ko'nglim bo'lar xush, Shamoling yuzlarim silaydi sarxush. Ohular sayr etgan yuksak tog'im-san, Sen mening jonajon Maymanog'im-san.

Otam tug'ilgan yurt, onam o'sgan yurt, Bobolarim yovlar yo'lin to'sgan yurt. Yozi va Zebolar yashab o'tgan yurt, Sen mening qadimiy nurli bog'im-san.

Ko'zimga to'tiyo aylasan arzir, Senga baxshidatur gul kabi tarzim. Nomingni ulug'lash bo'ynimda qarzim, Tuprog'i zar, oltinga kon tog'im-san.

Marjona SHOMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi
4-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

Siz nima deysiz?

SABOHAT

Malika bilan Sabohat sindfosh. Ikkisi ham a'lochi. Doimo birga yurishadi, bir xil kiyinishadi. Sabohat dugonasining tug'ilgan kuni arafasida unga qanday sovg'a olish kerakligini o'ylab qoldi. Oxiri «Bolalar ensiklopediyasi»ni sovg'a qilmoqchi bo'ldi.

Sabohat sovg'ani chiroyli yaltiroq qog'ozga o'rab, bir dasta chinni gullardan ham olishni unutmadi.

Menimcha, eng yaxshi sovg'a meniki bo'ladi, u dugonamga, albatta, yoqadi, deya xayolidan o'tkazdi Sabohat.

Katta dasturxon atrofiga barcha sindfoshlar jamuljam bo'lishdi.

Birin-ketin Malikani tabriklab, sovg'alar berishdi. Navbat Sabohatga keldi.

- Dugonajon, tug'ilgan kuning muborak bo'lsin, do'stligimiz hech qachon buzilmasin, - deya ezgu tilaklarini bildirdi.

Bayram tugagach, Sabohat bir-ikki qizlar bilan dugonasiga yordam berish uchun qoldi. Idish-tovoqlarni yuhib, uylarni supurib tozalashdi. Hammayoq ozoda bo'lganida:



NEGA ARAZLADI?

dedi hayron bo'lgandek. Sabohat bu gapdan duv qizarib ketdi va qattiq ranjidi.

- Bu bir qog'oz bo'lsa, qattiqroq tortsang, yirtilib ketadi, - dedi Malika nopisandlik bilan.

- Mayli, dugonajon, buni men olib keluvdim, yoqmasa olib ketaman, senga kattaroq sovg'a olib kelaman, - dedi mulzam bo'lgan Sabohat.

- Voy, dugonajon, kechir, aslida sovg'a menga juda yoquvdi, - dedi Malika sekingina.

- Uzi, kechirasan, men uni almashtirib beraman, - deya Sabohat uyiga qarab yugurdi.

Yaqindagina xolasining qizi sovg'a qilgan katta guldonni oldida, darrov ortiga qaytdi. Ostonada turgan dugonasiga qo'lidagini uzatdi.

- Mana dugonajon, sen kutgan sovg'a, - dedi-yu ortiga qaytdi. Shu topda uning qulog'iga hech narsa kirmasdi.

- ziz qizlarjon! Malikaning qilgan ishi to'g'rimi, aslida bu sovg'a shunchalik arzimaganmidi?

- Kel, Malika, kimning sovg'asi chiroyli ekan, bir ko'rib chiqaylik, - deb qoldi Nilufar.

- Mayli, o'zim ham ularni juda ko'rgim kelyapti, - deya rozi bo'ldi Malika.

Birin-ketin sovg'alarni ochgan Malika Sabohatning olib kelgan kitobini ko'rib: - Voy, shu ham sovg'a bo'ldi-yu, -

Ushbu tadbirda poytaxtimizning Shayxontohur tumani-dagi umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirok etishdi.

«NAZM VA NAVO»

84-umumta'lim maktabida o'tkazilgan kecha shunday nomlandi



O'quvchilar Navoiy va Boburning o'lmas asarlaridan namunalar ijro etib, tadbirga yig'ilganlar ko'nglida buyuk bobolarimizga nisbatan hurmat ruhini yana bir bor oshirishdi. Tadbirda Shayxontohur tumani XTMFMTTEBning ona tili va adabiyot fani uslubchisi Ra'no Ortiqova va maktab

rahbari Ziyoda Tosheva yig'ilganlarni ulug' ayyom bilan muborakbod etdi.

Kecha davomida ijro etilgan sahna ko'rinishlari va bobolarimiz g'azallariga bastalangan kuy va qo'shiqlar tadbirning yanada mazmunli o'tishini ta'minladi.



Maktabda o'tkazilgan ushbu badiiy kecha yosh avlod qalbida Vatanga va buyuk ajdodlarimizga nisbatan

hurmat va ehtirom ruhini yana bir karra mustahkamlashga xizmat qildi.

Mirshod QO'LDOSHEV,

Shayxontohur tumanidagi 84-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



TUMANDA PESHQADAM

Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi 9-umumta'lim maktabida sportning basketbol, voleybol, futbol va stol tennis turlari bo'yicha to'garaklar muntazam faoliyat yuritib kelmoqda.



Ushbu to'garaklarga 155 nafar o'quvchilar jalb etilgan bo'lib, ular nafaqat tumanda, balki viloyat, respublika turnirlarida ham peshqadamligni qo'ldan berishmaypti.

Maktab o'quvchilari «Umid nihollari – 2016» sport musobaqalarida erishgan yutuqlari bilan tumanda yetakchilardan ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, musobaqaning ikkinchi bosqichida 8–9-sinflar o'rtasida o'smirlar jamoasi basketbol, voleybol, futbol va qo'l to'pi bo'yicha 1-, 5–7-sinf o'g'il bolalar voleybol bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, yengil atletika bo'yicha 1–4-sinflar jamoasi ham 1-o'rinni egallashdi.



Kurashchilardan Murod Botirov 32 kg, Aziz Abdurahmonov 38 kg hamda Aziz Abdusalomov 54 kg vazn toifasida g'olib bo'lishdi. Dzyudo bahslarida 5–7-sinflar Asadbek Hotamov, Murod Botirov, 8–9-sinflar o'rtasidagi bellashuvlarda Sardor Isayev, Shohrux Tog'aymurodov va Akbar Ko'chimov o'z vazn toifasida g'oliblar qatoridan joy olishdi.

Ulug'bek SAIDOV

Bolalar sporti

Dam olish kunlarining birida Saida aya nabiralari bilan teleko'rsatuv tomosha qilib o'tirar ekan, Buxoro viloyatidagi bir sport maktabi o'quvchilarining suzish bo'yicha musobaqada qo'lga kiritgan yutuqlari haqidagi lavha e'tiborini tortdi.

MOHIR SUZUVCHILAR

Buvisining yelkasiga boshlarini qo'yib olgan Marjona va Ziyoda ham televizordan ko'zini uzmad.

Shu kundan boshlab jajji qizaloqlar suzish mashg'ulotlariga qatnaymiz, deb buvisini holi-joniga qo'ymadi. Saida aya ikki nabirasini yetaklab poytaxtimizning Olmazor tumanidagi madaniyat va sport ishlari bo'lim mudiri Asliddin Mahmudovga uchrashdi. Birgalashib tuman 33-bolalar va o'smirlar sport maktabiga yo'l olishdi. Maskan rahbari Gulida Mamatqulova qizchalarni quvonch bilan kutib oldi.

Marjona va Ziyoda endilikda murabbiylari Shavkat Azadovich va Konstantin Alekodoran suzish sporti sirlarini o'rganishmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan shahar birinchiligida Marjona 1-darajali, Ziyoda esa 2-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Hozirda Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 5-«G» va 3-«G» sinflarida ta'lim olayotgan opa-singil Marjona va Ziyoda Yodgorovalar bahor oyida bo'lib o'tadigan mamlakat chempionatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda. Biz esa jajji sportchiga omad tilab qolamiz.



Nozima JAVHAROVA

SHAXMAT TAXTASI

Kuni kecha poytaxtimizdagi Sergeli politexnika kasb-hunar kollejida «KAMOLOT» SHAXMAT TAXTASI» IX an'anaviy respublika turniri bo'lib o'tdi.

Tumarning bu bosqichida 8 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi sportning shaxmat turiga qiziquvchi o'quvchi-yoshlar ishtirok etishdi. Unda 65 nafar yoshlar o'zaro bellashib, g'oliblardan 15 nafari keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

Mamlakatimizda sportning mazkur turi kundan kunga ommalashib bormoqda. Yoshlarimiz xalqaro maydonlarda yuqori pog'onalarni egallashga musharraf bo'lmoqdalar. Mazkur musobaqa ham shaxmat sportini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodning mantiqiy tafakkur darajasi oshishiga xizmat qilishi, shubhasiz.

Sh. KAZAKBAYEV




Kompyuterda o'yinlar, Vaqtingizni o'g'irlar. Kitob o'qigan bola, Tez xatosin to'g'irlar.

Bu misralar tengdoshingiz Asadbekning «Kitob o'qing, bolalar!» deb nomlangan she'ridan olindi.

Asadbek Imomov Samarqand viloyati, Ishtixon shahridagi 1-IDUMning 5-«A» sinf o'quvchisi. U «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi g'olibi.

Asadbek adabiyotga, she'riyatga qiziqadi. Uning bosmadan chiqqan

KITOB O'QING, BOLALAR!



«Bahor yomg'iri» nomli kitobchasini she'riyat muxlislari iliq kutib olishdi. Yosh ijodkor ustozlari Muzrob Mo'minov, Ra'no Mavlonova, Otobek Sulaymonov, Mehri Jumanova, Gulnora Hamidova kabi mehdaryo ustozlariga qarata shunday deydi:

**Katta bo'lib ulg'aysak,
Gar buyuk inson bo'lsak.
Unutmaymiz hech qachon,
Doim bo'ling sog'omon.
Biz sizdan minnatdormiz,
Bir umr qarzdormiz.**

F. ABDUSAMAD qizi

USTOZ TILAGI IJOBAT BO'LDI



Mushtariy sinfning eng faol, a'lochi o'quvchilaridan. Ijodga ixlosi baland.

– «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'quvchilarim bilan kuzatib boramiz va tahlil qilamiz. Mushtariyning ijod namunalari ham gazetada chiqishini juda xohlayman, – deydi poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 101-

umumta'lim maktabi o'qituvchisi Dilfuza Kabirova. Biz Mushtariyning ijodi barq urishi uchun ustoz tilagini ijobat etdik.

GULLADI BODOM

Tong sahardan ko'chaga chiqib,
Bahor isi kelishin sezdim.
Ana qarang, gullabdi bodom,
Maktab sari ildamroq kezdim.

Musafo osmonga tikildim,
Bulutlar ham beg'ubor suzar.
Men ularni sinov deb bildim,
Ortda qoldi izg'irin kunlar.

Mushtariy SHOKIROVA,

Chilonzor tumanidagi 101-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

SHE'RIY JUMBOQ

Qadim o'tgan zamonda,
Bir malika bor ekan.
Uch yurtdan uch shahzoda,
Unga xaridor ekan.

– Mamlakatga jar soling,
Yig'illsinlar saroyga.
Ertaga shahrimizda,
Uyushtiramiz poyga.

Malika tanlay desa,
Shahzodalar bari mard.
O'ylab-o'ylab oxiri,
Belgilabdi shunday shart.

Eng so'nggi yetib kelsa,
Marraga kimning oti.
Mayli, men rozi bo'lay,
O'shanga shu zahoti.



YOQUBBEK chizgan rasm

Ertasiga ertalab,
To'planishdi xaloyiq.
Ko'raylik, malikaga
Qay shahzoda, deb loyiq.

Bu gapdan keyin go'yo,
Tanlarga olov tushdi.
Shahzodalar otlarni,
Yugurtirib ketishdi.

Shahzodalar negadir,
Otlarin qistashmasdi.
Aftidan yutqazishni,
Hech biri istashmasdi.


Dono cholning aqliga,
Davra ahli berdi tan.
Ayting-chi, ularga chol,
Aslida nima degan?

Poygaga kelganlarni,
Norozi qildi bu hol.
Shunda o'rtaga chiqib,
So'zladi nuroniy chol.

Azamot
XUDOYBERGANOV

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR! KROSSVORD

1. Eron poytaxti.
2. Afg'oniston poytaxti.
3. Tojikiston poytaxti.
4. Rossiya poytaxti.
5. Avstriya poytaxti.
6. Angliya poytaxti.
7. Albaniya poytaxti.



Sohiba O'SARALIYEVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
2-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MURABBOLI PISHIRIQ

pasanda qisqa!

Masalliq: 2 dona tuxum, 250 gr margarin yoki sariyog', 1 piyola shakar, 0,5 piyola qatiq va 1 choyqoshiq iste'mol sodasi, 3 piyola un, vanilin, murabbo.

Tayyorlanishi: idishga un solinadi va sariyog' yoki margarin qirg'ichdan chiqarilib aralashiriladi. Alohida idishda qatiq iste'mol sodasi bilan aralashirilib unli massaga qo'shiladi.

Va shakar, tuxum, vanilin solib, yumshoq xamir qoriladi. Xamir usti yopilib, yarim soat xona haroratida tindiriladi. Tingan xamir 2 bo'lakka bo'linadi. 1-bo'lagi kattaroq, 2-bo'lagi kichikroq bo'lishi kerak.

Katta xamir bo'lagi doira yoki to'rtburchak shaklida gaz patnisiga yoyiladi. Kichik xamir bo'lagi esa o'rtacha qalinlikda yoyiladi va uzun tasmlar kesiladi. Gaz patnisiga yoyilgan xamir bo'lagi ustiga murabbo surtiladi va kesib olingan xamirlar bilan savat shaklida bezatiladi. Pirogni qizib turgan gaz pechida o'rta olovda 30-35 daqiqa usti pushti rang bo'lguncha pishiriladi. Pishgan pishiriq ustiga shakar kukuni sepiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

15-fevral 2016

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruza Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchidizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 50019
Buyurtma – S 5156